



MILLIY GVARDIYA BO'LINMALARI TOMONIDAN

HUQUQBUZARLIKLAR BARVAQT PROFILAKTIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Adashov Hojiboy Xusan o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti magistranti

Annotatsiya: maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normativ huquqiy hujjatlarining yuritilishi va unga oid yangiliklar haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, professional tuzilma, platforma, vaziyat, kompleks mexanizm.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni ta'minlash, jamiyatda fuqarolarning huquqiy madaniyatini va huquqiy savodxonligini yuksaltirish, fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, qonunlarga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murossasizlik munosabatini singdirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu asnoda, yurtimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirishga qaratilgan bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 14-may kungi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-mart kungi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevral kungi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-4166-son qarori qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.



Shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan davr mobaynida respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllandi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublarini tubdan o'zgartirish, qonun buzilishi holatlarini fosh etish va choralar ko'rish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlashni, ushbu idoralarning eng asosiy vazifasiga aylantirish, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining samarali tizimini joriy etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda profilaktik chora tadbirlarin amalga oshirishda profilaktika inspektorlarining roli kengayib, ular ma'muriy hududda mahalla raisi va uning o'rinbosarlari bilan birgalikda, har bir ko'cha, har bir xonadonga birma-bir kirib, fuqarolarning ijtimoiy ahvolini o'rganish, taklif va tavsiyalarini berishlari muhim masalalardan biri hisoblanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6196-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu farmonda ichki ishlar organlari tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan normalar o'z aksini topganligini ko'riishmiz mumkin.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi, bunda:

- mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanishi;



- mahalla huquq-tartibot maskani negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etilishi;

- mahalla huquq-tartibot maskani tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklanishi belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik bilan aloqalarni yana-da mustahkamlash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Profilaktika inspektorlari faoliyati tizimini tubdan isloh qilishning huquqiy asoslari takomillashtirildi, tizim xodimlariga yangi vazifalar yuklatildi va xizmat olib borish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilgan barcha funktsiyalarni samarali bajarish har tomonlama hududda kriminogen vaziyatni o'rganishni, tahlil qilib borishni talab qiladi. Shunday ekan, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda eng avvalo mahallada yashovchi, o'zining g'ayri-ijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxslarning turmush tarzini, mavjud muammolarni o'rganishi zarur. Ushbu toifadagi shaxslarning muammolarini Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi tegishli idoralar bilan hamkorlikda bartaraf etish hamda huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

Davlatimiz yoshlar masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bugungi kunda aholining yoshlar qatlamiga oid islohotlarni to'la-to'kis amalga oshirib kelmoqda. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalar bilan bir qatorda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish masalasi ham dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Huquqbuzarliklarning oqibati bilan emas, balki uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash profilaktika ishlarini olib borishning samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.



Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish nafaqat davlat organlarining, balki shu jamiyatning a'zosi hisoblangan har bir insonning vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2833-sonli Prezident qarori. [https://lex.uz/docs/- 3141186](https://lex.uz/docs/-3141186)
2. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 8-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.-T.,2010.,- №39.
3. Костекова К.А. «Роль социального педагога в профилактике правонарушений в подростковой среде». [https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniy-v- podrostkovoy-srede](https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniy-v-podrostkovoy-srede).